

<https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1039>

## INTERNATIONAL RELATIONS AND TOLERANCE IN UZBEKISTAN

### (National holidays and customs of the Korean people)

O`sarqulov Oybek Mirodilovich

Farg`ona davlat universiteti akademik litseyi

tarix fani bosh o`qituvchisi.

[shakhlo.shakhobiddinova.95@mail.ru](mailto:shakhlo.shakhobiddinova.95@mail.ru)

+998 91 108 61 81

**Anotatsiya.** O`zbekistonning Janubiy Koreya davlati bilan mustaqillikdan keyingi yillardagi madaniy aloqalari, koreys diasporasidagi o`zgarishlar, koreys xalqining urf odatlari va bayramlarini haqida to`laqonli ma`lumot berish. Milliy-madaniy markazlarning o`rni va ahamiyati hususida fikr yuritiladi.

**Kalit so`z:** urf odat, an`analar, hamkorlik, milliy-madaniy markaz, konstitutsiya, diaspora.

**Аннотация.** Предоставить подробную информацию о культурных связях Узбекистана с Республикой Корея в годы после обретения независимости, изменениях в корейской диаспоре, обычаях и праздниках корейского народа. Обсуждаются роль и значение национально-культурных центров.

**Ключевые слова:** обычаи, традиции, сотрудничество, национально-культурный центр, конституция, diaspora.

**Annotation.** To provide detailed information about the cultural ties of Uzbekistan with the Republic of Korea in the post-independence years, changes in the Korean diaspora, customs and holidays of the Korean people. The role and importance of national and cultural centers are discussed.



**Keywords:** customs, traditions, cooperation, national-cultural center, constitution, diaspora.

O‘zbekiston hududida o‘z madaniyati va o‘z an‘analariga ega bo‘lgan 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ular ham mamlakatning barcha fuqarolari qatori bir xil huquq va majburiyatlarga ega.

Respublikamizda ijtimoiy – siyosiy barqarorlikni ta‘minlashda millatlararo omillarning ahamiyati katta. Qadimdan mamlakatimizda turli madaniyat va sivilizatsiyalar vakillari –turli xalqlar etnik guruhlar aralashib, do‘stlik va hamjihatlikda yashab kelgan. Ko‘pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni shakllantirish bo‘lishi zarur. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq milliy siyosatning o‘ziga xos yo‘li ishlab chiqildiki, ayni shu siyosat milliy bag‘rikenglikning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashab kelmoqdalar. O‘zbekiston barcha millatlar o‘rtasida totuvlikni ta‘minlash ko‘p millatli jamiyat tizimini saqlab qolish va mustahkamlash yo‘lidan bordi.

O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy-madaniy markazlari (MMM) faoliyat yuritadi. Dastlabki milliy-madaniy markazlar koreyslar, qozoqlar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tashkil etilgan. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Bu davrda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada ularning soni yil sayin ortib bordi.

Tarixdan ma‘lumki, o‘zbek xalqi boshidan kechirgan og‘ir qatag‘on yillari va ikkinchi jahon urush yillari ko‘p sitamlarga yuzma-yuz bo‘lgan koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim-tatar va boshqa millat vakillari



O'zbekistonni Vatan tutdilar. Ularning hozirgi avlodlari uchun esa O'zbekiston ona Vatanga aylandi. Chunki, ular shu yerda tug'ilib, kamolga yetdilar, hayotda o'z o'rinlarini topdilar.

Koreys xalqi quvg'in va mahrumliklarga qaramay koreys xalqi ajdodlari ko'p asrlar davomida shakllangan madaniy merosni saqlab qola oldi va keyingi avlodga yetkazdi.

Koreys xalqining milliy bayrami "Sollar" bo'lib bu bayram koreys xalqi taqvimiy udumlari ichida eng muhim bayramlaridan biri hisoblanadi. Koreyada Yangi yil bayrami vaqti oraliq, ya'ni o'tayotgan yilning qishloq ho'jalik ishlari yakunlangan va yangi yil ishlariga tayyorgarlik boshlanish paytini o'z ichiga oladi. Bu bayram koreyslarda har bir inson yoshining hisob nuqtasi hisoblanadi. Yangi yilga tayyorgarlik bayramdan allaqancha oldin boshlanadi. Har bir oilada uylar tozalanadi. Kirish eshigi tepasiga cho'mich shakliga keltirilgan oshqovoq (Pagadi) ilib qo'yiladi. Aytishlaricha bu odat yangi yilda muvafaqiyat va tinchlik, omonlik olib kelarmish Yangi yilda har bir oila a'zolari kiyim-kechak tiktiradilar Yangi yilga yangi kiyim kechak tayyorlash sehri ma'noga ega bo'lib, u yangi hayot ruzi hisoblanadi har-hil kasalliklar, falokatlar eski kiyim-kechak bilan O'tmishda qolib ketadi Yangi yil arafasida hamma qarzlardan qutul kerak Bu ana hozirgi kunda ham saqlanib qolgan Yangi yil koreys xalqi uchun oilaviy bayram. Bu kuni alohida yashayotgan farzandlar ota-onalarinikiga tushlikka yig'ilishadi Koreyada bayram marhum va marhumalar ruhiga qurbonlik qilish bilan boshlangan Bu marosim Yangi yil birinchi kunining muhim marosimi hisoblangan Erta tongdan yangi kiyimlar bilan yasangan oila a'zolari maraka dasturxonini bezash bilan bayram marhum va marhumalar ruhiga qurbonlik qilish bilan boshlangan Bu marosim Yangi yil birinchi kunining muhim marosimi hisoblangan Erta tongdan yangi kiyimlar bilan yasangan oila a'zolari maraka dasturxonini bezash bilan ovora bo'lishadi Xonadonning bir chetiga pastakina stol qo'yilib er-xotinning vafot etgan ota-onalari, bobo va momolari ismi-shariflari yozigan taxtacha qo'yiladi



“Maraka dasturxoni”dagi ovqatlar xilma –xil bo`lib Qaynoq guruchli bo`tqa , guruch uni (jirim kubi)dan tayyorlangan yupqa ,suv, tovuq go`shti, baliq, sabzavotlar ,mevalar, may(vino) albatta dasturxonda bo`lishi shart Har bir taom uchun dasturxonda alohida joy ajratiladi : oldinda vino ,sharqda baliq, g`arb tomonida go`sht ,guruch, suv orqada, ya`nimarhumlar nomi yozigan joyda Yangi yil ayyomida o`tganelarni “yod olish -mehmon qilish” quyidagich o`tkaziladi olia boshlig`i qadahga sharob quyib , likopchaga go`sht sabzavotlar qo`yadi so`ngra stol chekkalari shamlarni yoqadi .Marosimda qatnashganlar uch marotaba peshonalarini erga tekkazib ,sajda qiladilar Bunday rasm-rusmlar o`tmaish an`analariga hurmat ifodasi bo`lib qolmasdan balki farzandlarni kattalarga , urf odatlarini hurmat qilishga undaydi. Shu paytda umr yo`ldoshlar bir-biriga ta`zim qilib , yil davomida yonma-yon bo`lganliklari uchun, xushmomaliligi e`tiborliligi va g`amxo`rligi uchun bir-biridan minnatdor bo`ladilar. So`ngra farzandlar ota-onalariga ta`zim qiladilar ota-onalar farzandlariga sovg`a salomlar ulashadi va shundan keyin ovqatlanishga kirishiladi. Yangi yil nonushtasida avvalo loviya va guruchdan tayyorlangan suyuq ovqat (ogir) ichiladi. “Ogir”ni tanovvul qilgan odam bir yoshga katta bo`ladi deb hisoblanadi.

Koreys xalqining bayramlaridan yana biri Katta o`n beshinchi kun (Te Porvim) ham katta bayram hisoblanadi. Bu bayram oy to`lish bayramidir. Oldingi davrlarda koreyslarda bu bayram yangi yil bayramining muhim qismi hisoblangan. Hozirgi kunda bu bayramni ayrim odamlargina nishonlaydi. Erta tongda turib yong`oqlardan chaqib yeyish kerak kimki shunday qilsa uning tishlari mustahkam bo`ladi deb hisoblashgan. Kechqurun oyni kutib olish, kimki oyning chiqib kelishini birinchi bo`lib ko`rsa, u yil davomida baxtli bo`ladi degan tushuncha saqlanib qolgan. Birinchi oyning 15 kuni har hil o`yinlar o`tkazilgan. Eng mashhuri arqon tortish –“Chultarigi” bo`lgan Aytishlaricha yutgan tomon har hil kasalliklardan qutulib ular uchun yil omadli bo`lgan.

Har yili o`zbekistondagi KMMA “Oval tano” bayramini nishonlash tashkil qiladi Bu bayram oy quyosh taqvimini 5 –oyining 5-kunida nishonlanadi. Bu



vaqtda ertapishar mevalar pishadi ,tabiat gulga burkanadi. Dehqonlar sholini ekib bo`lib uncha ko`p bo`lmagan dam olish imkoniyatiga ega bo`ldi Odamlar eng yaxshi kiyimlarni kiyoshadi ,sayllar va o`tirishlar avj oladi Yigitlar kurash – “Sirim” musobaqasida baxslashsa,ayollar xalqchaklarda uchishadi.

KMMA si tufayli O`zbekistondagi koreys diasporasi shirkat ho`jaliklar va Toshkentdagi istirohat bog`larida bu bayramni o`tkazish imkoniyatiga ega bo`ldilar. Iliq davra suhbatlaridan tashqari eng yaxshi koreys san`atkorlarining chiqishlari bayramga fayz bag`ishlaydi. Bu kuni ko`pchilik qabrstoniga borib ,marhumlarni yodga olishadi.

Koreyslarda yana bir muhim bayram “Chusok “ hisoblanadi Chusok kuz oqshomi 8- oyning 15- kuni nishonlanadi. Bu bayram katta hurmatda bo`lib hosil bayramidir va o`tgan ajdodlarni yodga olinadi. Hozirgi Koreyada Chusok bayrami kunlarida uch kun mamlakatning ishchan xayoti batamom to`xtatiladi. Shahar aholisi ajdodlari yashagan joylariga qishloqlariga ketishadi va o`sha yerda bayramni nishonlashadi. Bu kuni qishloqlarda musobaqalar ,o`yinlar,tetrlashgan tomoshalar o`tkaziladi Sobiq Sovet davrida “Chusok” qabrsistonlarga borish va oilaviy bayram dastirxonida o`tirsh bilan cheklangan Keyingi yillarda milliy o`zlikni anglashning o`yg`onishi O`zbekistonda “Chusok “keng qamrovli qilib o`tkazishga imkon bermoqda.

Yuqoridagi bayramlarni nishonlash O`zbekistonda an`anaga aylandi. Bayramlarni o`tkazishda Koreya Respublikasi elchisi, elchixona va biznes-markaz xodimlari taklif etiladi Ular har gal bayramlarda ishtirok etar ekan bayramlarning urf odat va an`analari boshlang`ich holatida saqlanib qolganligiga hayron qolishadi hamda koreys diasporasiga o`z minnatdorchiliklarini bildirishadi

Xulosa qilib shuni aytish kerakki , milliy urf odat ,til , madaniyatning qayta tiklanishi ,yoshlarning milliy shakllanishga qiziqishini millatchilikka yo`ymaslik kerak Aksincha o`z milliy madaniyati urf odatlarini haqiqiy bilish ,anglash orqali har hil millatdagi insonlar o`rtasida o`zaro bir –birini anglash ,madaniyatni



boyitish ro'y beradi. Turli xil millatlarning bayramlari har hil shaklga ,marosim va urf odatlarga ega bo'lishiga qaramay umumiy ko'rinish va umumiy yo'nalishga ega. Bu har qanday bayramlarda bir-biriga baxt tilash yoshlarni kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash mehnatni madh etish, tinchlikka insonlar o'rtasidagi munosabatlarda kamolotga erishishga intilishdir.

Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, millatlararo munosabatlarda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar asta –sekinlik bilan bartaraf etila boshlandi. Ko'p millatli mamlakatda xalqlar tinch-totuvligini ta'minlash chora tadbirlari ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi",-deyiladi. Mazkur moddada qayd etilgan qoida jahondagi biron-bir Konstitutsiyada uchramaydi Unda Konstitutsiya darajasida "O'zbekiston xalqi" tushunchasining ta'rifi bayon etilgan O'zbekistonda tug'ilgan ,uning zaminida yashab mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irqiy mansubligidan ,diniy e'tiqodidan qat'iy nazar mamlakatimizning teng fuqarosi bo'lishga munosibdir.

Shuningdek, Bugun respublika hududida yashovchi 130 dan ortiq millat va elat vakillari uchun O'zbekiston Konstitutsiyasi millatlararo totuvlikni mustahkamlash, barqarorlik va taraqqiyotnita'minlashning kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ashabbusi bilan qabul qilingan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvoryo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidamamlakatimizda millatlararototuvlikni ta'minlash masalasiga alohidae'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda tinchlikni yanada mustahkamlash, millatlararo barqarorlikni yuksaltirish maqsadida 2017-yil 19-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Millatlararo munosabatlarva xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, Baynalmilal madaniyat markazi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil



etildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlarini qo'llab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat yuritishida davlat idoralariva jamoat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirishda mustahkam tayanch bo'ladi.

O'zbekiston fuqarolari ,o`zlarining nasl-nasabi ,irqi , ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat`iy nazar ,O`zbekiston xalqini tashkil etadi Konstitutsiya O`zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urf odatlari va milliy an`analarini hurmat qilishshni kafolatlaydi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. 1.O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. Narzulla Jo'rayev, Akbar Zamonov O'zbekiston tarixi (Mustaqillik davri) T.:2018 G'afur G'ulom Toshkent – 2018.
3. Ким.П.Г Корейци Республика Узбекистан Ташкент. Узбекистан.-1993
4. Лим Р.А Традиции,Обичаи,Обряди,ритуали корейцев, проживающих на территории Ташкет.Узбекистана ,1996.
5. Лян .Р Вдали от Родины предков .Фергана. 2007.

